MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QUCHQAROVA SARVINOZ ATAMURATOVNA

CHEKSIZ IKKI BLOK DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASI BILAN YOZILADIGAN DIFFERENSIAL O‘YINLAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA
FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 517.977.8

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QUCHQAROVA SARVINOZ ATAMURATOVNA

CHEKSIZ IKKI BLOK DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASI BILAN YOZILADIGAN DIFFERENSIAL O‘YINLAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM707 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'iga (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:	**Ibragimov G'ofurjon Ismoilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mamadaliyev Numanjon** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ibaydullayev To'lanboy Tursunboyevich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Namangan Davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "8." "04" soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (37-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "24" mart kuni tarqatildi.

(2025 yil "24" mart dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

A.Sadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

R.M.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.f.d., PhD

Sh.A.Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallik bilan rivojlanishi matematik boshqaruv nazariyasining, shu jumladan, differensial o‘yinlar nazariyasining yangi sohalarini rivojlantirish va olingan natijalarning amaliyotga tadbiq qilishni talab etmoqda. Matematikadagi amaliyot talablaridan kelib chiqadigan bir qancha masalalar optimal boshqarish va differensial tenglamalar masalalariga keltiriladi. Matematika, differensial o‘yinlar va iqtisodiyotning turli sohalarida ikki blok (ko‘p hollarda qo‘sh blok deb qaraladi) tushunchasining tadbiqlari amalda qo‘llanilmoqda. Shuning uchun ham cheksiz ikki blok differensial tenglamalar sistemasi bilan tavsiflanuvchi ziddiyatli holarlatning boshqaruv parametrlariga geometrik, integral va turli chegaralar qo‘yilgan hollarda tadqiq qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda blokli differensial tenglamalar cheksiz sistemasi bilan tavsiflanuvchi ziddiyatli muammolarni hal etish muhim ahamiyatlardan biri sanaladi. Cheksiz ikki blok differensial tenglamalar sistemasi bilan tavsiflanuvchi differensial o‘yinlar nazariyasi va uning tatbiqlari bo‘yicha birinchi ustuvor yo‘nalishlarda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘yinchilarning boshqaruvlariga turli chegaralar qo‘yilgan cheksiz ikki blok differensial tenglamalar sistemasi bilan tavsiflanuvchi quvish-qochish masalalari, amaliyotda ko‘p uchraydigan ziddiyatli sharoitlardan kelib chiquvchi fizik jarayonlarga mos keladi. Ammo natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv parametrlariga turli chegaralar qo‘yilgan xususiy hosilali differensial tenglamalarda quvish masalalarini yechish jarayonlarini tadbiq etish uchun turli xil usullar talab qilinadi. Shuning uchun ham ikki blok differensial tenglamalar sistemasi yechimlari fazosining funksional va algebraik xossalarini o‘rganish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda fundamental fanlarning amaliy tatbiqqa ega bo‘lgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlariga muntazam ravishda e’tibor qaratib kelinmoqda. Ilm-fan rivojlanishida fundamental tadqiqotlarni amaliyotga yaqinlashtirish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Differensial o‘yinlar nazariyasi ziddiyatli vaziyatlarda jarayonlarni boshqarish muammolarini hal etishda eng samarali sohalardan biridir. Xususan, “Differensial tenglamalar nazariyasi, algebra va uning tatbiqlari, funksional analiz va uning tatbiqlari, dinamik sistemalar nazariyasi, matematik statistika, matematik modellashtirish” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Bu vazifalarni amalga oshirishda dinamik sistemalar, differensial tenglamalar, matematik boshqaruv nazariyasi va dinamik o‘yinlar nazariyasida turli chegaralarga ega differensial o‘yin masalalari uchun optimal yechimlarni ta’minlaydigan boshqaruv modellarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4387 “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljal-langan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa nor-mativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Differensial o‘yinlar tushunchasini R.Ayzeks kiritgan, garchi Ayzeksdan avval ham ba’zi differensial o‘yinlar ko‘rib chiqilgan edi. Ushbu mavzuga oid oldingi adabiyotlarning aksariyati chekli o‘lchamli fazoda differensial o‘yinlarga bag‘ishlangan. Differensial o‘yinlar L.D. Bercovitz, W.H. Fleming, L.S. Pontryagin, N.N. Krasovskiy, A. Bryson, O. Hajek, A. Friedman, R.J. Elliot, N.J. Kalton, S. Baron, E.F. Mishenko, Y.S. Osipov, A.B. Kurjanskiy, B.N. Pshenichnyi, L.A. Petrosyan, A.I. Subbotin, Chikrii, N.Yu. Satimov, A.A.Azamov, A.Sh. Kuchkarov, M. To‘xtasinov, N.Mamadaliev, B.T.Samatov, G‘.I.Ibragimov va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan.

Cheksiz o‘lchamli fazolar bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy ishlar bor. A.A.Azamovning ishida cheksiz o‘lchamli chiziqli oddiy differensial tenglamalar sistemai uchun koeffitsiyentlar matritsasining diagonal elementi λ va yuqori diagonal elementlari 1 ga teng. $\lambda \le -1$ barqarorligi va sistemaning boshqariluvchanligi o‘rganilgan.

Xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan tavsiflangan differensial o‘yinlar masalalarini birinchi marta J.L.Lions va Yu.S.Osipov tomonidan tadqiq etilgan. Xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan tavsiflangan sistemalar uchun boshqaruv va/yoki differensial o‘yin masalalarini o‘rganishda asosiy usullardan biri Fure usulidir. Bu usuldan xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan tavsiflangan differensial o‘yin masalalarini cheksiz oddiy differensial tenglamalar sistemasi bilan tavsiflangan differensial o‘yin masalalariga keltirish uchun foydalanishimiz mumkin.

N.Yu.Satimov va M.To‘xtasinovning ishida parabolik tipdagi xususiy hosilali tenglama bilan ifodalangan quvish va qochish differensial o‘yinlari o‘rganilgan. Turli xil boshqaruv chegaralari (integral, geometrik) holatlari tahlil qilingan. O‘yinchilarning boshlang‘ich holatlari ma’lum bir to‘plamlarga tegishli bo‘lganda quvlovchi uchun tutish, qochuvchi uchun esa qochish shartlari aniqlangan.

G‘.I.Ibragimov tomonidan l_2 Gilbert fazosida ko‘p quvuvchi ishtirokidagi o‘yinda, o‘yin davomiyligi berilgan. O‘yin qiymati uchun formula topilib, o‘yinchilarning optimal strategiyalari aniq ko‘rinishda qurilgan. M.Salimi va M.Ferraraning ishida bir yoki chekli sondagi quvuvchilarning bir qochuvchiga optimal yaqinlashish masalasi o‘rganilgan. Ushbu ishda o‘yin qiymati va o‘yinchilarning optimal strategiyalari uchun formula taklif qilingan. A. A. Azamov va M.B.Ruziboevning ishida sistema holatini boshlang‘ich holatda koordinata boshiga vaqt bo‘yicha optimal o‘tkazish masalasi o‘rganilgan va optimal vaqt yuqoridan baholangan.

H.O.Fattorini tomonidan parabolik tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun vaqt bo‘yicha optimal boshqaruv masalasi birinchi marta o‘rganilgan. A.V.Fursikovning ishida taqsimlangan parametrli sistemalardagi optimal boshqaruv masalalari keng o‘rganilgan. S.Albeverio va Sh.A.Alimovning ishi parabolik differensial tenglama uchun vaqt bo‘yicha optimal boshqaruv masalasida, boshqaruv funksiyasi chegarada berilgan holda muhim natijalar olingan. Shuningdek, Chaves-Silva tomonidan xotira tarkibiy qismlariga ega evolyutsion tenglamalarning nol boshqariluvchanligi va Filippe Martin tomonidan Sobolev fazosida nol boshqariluvchanlik mavjudligi uchun ba’zi struktura bo‘yicha to‘lqin tenglamalari o‘rganilgan.

Q.Wangning ishida Apolloniy doirasi nazariyasi asosida bir nechta quvuvchilar tomonidan tezkor qochuvchini ushlash uchun boshlang‘ich holat taqsimoti taklif etilgan. R.Dengning ilmiy ishlarida tekislikda ko‘p quvlovchi va bir qochuvchi o‘rtasidagi o‘yin o‘rganilgan. E.Garkia, D.W.Kasbeer va M.Pachter tomonidan o‘rganilgan ishda uch o‘lchamli, ikki quvlovchi va bir qochuvchidan iborat differensial o‘yin tekshirilgan, bunda tezligi bir xil bo‘lgan quvlovchilar belgilangan hududni qochuvchidan himoya qilish uchun hamkorlik qiladilar. Mualliflar ushbu o‘yinning to‘liq yechimini taqdim etishgan. E.Garkianing ilmiy ishida ko‘p quvlovchi va ko‘p qochuvchili differensial o‘yin o‘rganiladi. O‘yinning qiymat funksiyasi doimiy ravishda farqlanishi aniqlanadi. Bundan tashqari, o‘yinchilar uchun optimal strategiyalar olinadi.

R.Yanning ilmiy ishlari ikki qarama-qarshi jamoa o‘rtasidagi ko‘p o‘yinchi ishtirok etuvchi quvish-qochish differensial o‘yinlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. A.Sh.Kuchkarovning ilmiy ishlarida ko‘p quvlovchi va bir qochuvchidan iborat differensial o‘yini o‘rganilgan, unda o‘yinchilarning dinamikasi bir xil turdagi chiziqli sistemalar bilan tavsiflangan. Mazkur ishda o‘yin davomiyligi aniqlangan, quvlovchilar va qochuvchi o‘rtasidagi minimal masofani hisoblash uchun to‘lov funksiyasi qurilgan va bu funksiya uchun baho olingan.

Agar modellashtirish boshqaruv jarayonlari uchun energiya, yoqilg‘i, resurslar va boshqalar kabi tugaydigan resurslar cheklangan bo‘lsa, boshqaruv funksiyalari integral cheklovlar bilan cheklanadi. G‘.I.Ibragimov va Y.Salleh ishida ko‘p quvlovchilar va bir qochuvchili qochish differensial o‘yini o‘rganilgan, bunda qochuvchi quvlovchilarga nisbatan boshqaruv resursida ustunlikka ega. G‘.I. Ibragimov ishida boshqaruvga integral chegara qo‘yilganda ko‘p quvlovchili va bir qochuvchili chiziqli differensial o‘yini tadqiq etilgan va boshlang‘ich holat uchun qochish strategiyasi qurilgan hamda qochish mumkinligi ko‘rsatilgan.

A.Sh.Kuchkarov ishida Evklid fazosidagi ko‘pyoqlikda ko‘p quvlovchi va bir qochuvchining oddiy harakatli differensial o‘yini o‘rganilgan. Barcha o‘yinchilar bir xil dinamik imkomiyatlarga ega. Agar ma’lum shart bajarilsa, quvish yakunlanishi yoki aks holda qochish mumkinligi ko‘rsatilgan.

Bir nechta quvlovchili o‘yinlarning amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liq mihim tadqiqot sohalaridan biri ko‘p karrali tutish o‘yiniga bag‘ishlangan masalalar hisoblanadi. Quvlovchilar guruhi qochuvchilarni $m, m \geq 1$ marta tutishni maqsad qiladi. Agar m dan kam quvlovchilar qochuvchiga yetib borsa, ularni qochuvchi yo‘q qiladi.

A.I.Blagodatskih va N.N.Petrov bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lgan bir guruh qat’iy koordinatadagi qochuvchilar va ko‘p quvlovchilarning bir vaqtda ko‘p karrali tutish masalasini o‘rgangan. Ushbu ishda quvlovchilar bo‘laklarga bo‘lingan qarshi strategiyalarni qo‘llagan holda bir vaqtda ko‘p karrali tutish uchun zarur va yetarli shartlar olingan. N.N.Petrov tomonidan o‘yinchilar dinamikasi kasr tartibli hosilaga ega differensial tenglamalar bilan tavsiflangan holatda ko‘p karrali tutish masalasini hal qilish uchun ba’zi shartlar olingan va barcha o‘yinchilar teng imkoniyatlarga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida “Differensial tenglamalar va ular bilan bog‘liq matematik sohalarning markaziy muammolari” dasturi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi l_2 Gilbert fazosida cheksiz 2 blok differensial tenglamalar sistemasining yechimi mavjud va yagonaligini isbotlash, kafolatlangan tutish va qochish vaqtlarini topish, optimal tutish vaqtini topish, quvlovchi va qochuvchi uchun optimal strategiya qurish, hamda $\mathbb{R}^n$ fazoda ko‘p karrali tutish masalalarini yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

differensial o‘yinda o‘yinchilar boshqaruvlari bo‘yicha aralash cheklovlarga ega bo‘lgan holda ko‘p karrali tutish shartlarini aniqlash;

l_2 Gilbert fazosida o‘yinchilar boshqaruvlariga integral cheklovlar qo‘yilgan differensial o‘yinni ifodalovchi cheksiz 2 blok differensial tenglamalar sistemasi yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

o‘yinchilarning boshqaruvlariga geometrik cheklovlar qo‘yilgan quvish differensial o‘yinida kafolatlangan quvish vaqtini va qochish differensial o‘yinida kafolatlangan qochish vaqtini aniqlash;

o‘yinchilarning boshqaruvlariga integral cheklovlar qo‘yilgan differensial o‘yinda quvlovchi va qochuvchi uchun optimal strategiyalar qurish;

o‘yinchilarning boshqaruvlariga integral cheklovlar qo‘yilgan differensial o‘yinda optimal quvish vaqtini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. l_2 Gilbert fazosida boshqaruvlariga integral va geometrik cheklovlar qo‘yilgan differensial o‘yinlar, vaqt bo‘yicha optimal boshqaruv masalasi.

Tadqiqotning predmeti. Kafolatlangan tutish va kafolatlangan qochish vaqtlarini aniqlash, integral va geometrik cheklovlarda optimal quvish vaqtini aniqlash va o‘yinchilar uchun optimal strategiyalar qurish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida oddiy differensial tenglamalar nazariyasi, funksional analiz, optimal boshqaruv nazariyasi va differensial o‘yinlar nazariyalari usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$\mathbb{R}^n$ fazoda o‘yinchilar boshqaruvlariga aralash cheklovlar qo‘yilgan differensial o‘yinda ko‘p karrali tutish uchun zarur va yetarli shartlar tengsizliklarni yechish yordamida aniqlangan;

l_2 Gilbert fazosida o‘yinchilar boshqaruvlari uchun integral cheklovlar qo‘yilgan differensial o‘yinni ifodalovchi cheksiz 2 blok differensial tenglamalar sistemasi yechimining mavjudligi va yagonaligi bo‘yicha intuitiv yechimlarning yetarli shartlari keltirilgan;

l_2 Gilbert fazosida o‘yinchilar boshqaruvlariga geometrik cheklovlar qo‘yilgan quvish differensial o‘yinida kafolatlangan tutish hamda qochish differensial o‘yinida kafolatlangan qochish vaqtini aniqlash bo‘yicha zaruriy shartlar topilgan;

l_2 Gilbert fazosida o‘yinchilarning boshqaruvlari integral cheklovli differensial o‘yinda optimal tutish vaqtini aniqlash uchun yangi yetarli shartlar aniqlanib, o‘yinchilar uchun to‘la sistema aniqlaydigan optimal strategiyalar qurilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi. Ushbu dissertatsiya tadqiqotida ziddiyatli boshqaruv jarayonlarini ifodalovchi matematik modellar sifatida quvish-qochish muammolari hal qilingan. Olingan natijalar va taklif etilgan usullar, qarama-qarshi maqsadlar bilan boshqariladigan jarayonlar nazariyasini tadqiq etish bo‘yicha tadqiqotlarda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarning ishonchliligi oddiy differensial tenglamalar nazariyasi, funksional analiz, dinamik sistemalar nazariyasi, optimal boshqaruv metodlarini qo‘llagam holda matematikada qabul qilingan deduktiv xulosalarga, jumladan teorema va tasdiqlarning qat’iy isbotlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ziddiyatli vaziyatlarda boshqariladigan jarayonlar nazariyasini yanada rivojlantirish hamda qaralayotgan sohada boshqaruv masalalarini bevosita optimallashtirish bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ziddiyatli sharoitlarda va axborot noaniqligida konstruktiv boshqaruv usullarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi va ulardan uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish muammolarida foydalanish imkoniyatlari mavjudligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Turli chegarali boshqaruvlarga ega cheksiz ikki blok differensial tenglamalar sistemasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

l_2 Gilbert fazosida o‘yinchilar boshqaruvlariga geometrik cheklovlar qo‘yilgan quvish differensial o‘yinida kafolatlangan tutish hamda qochish differensial o‘yinida kafolatlangan qochish vaqtini aniqlash bo‘yicha topilgan yangi yetarli shartlar 01-01-20-2295FR raqamli “Geometrik struktura ichidagi qavariq giperfazoda quvish differensial o‘yini” mavzusidagi ilmiy loyihada, cheksiz sistemalar bilan ifodalangan differensial o‘yin masalalarini tadqiq etishda qo‘llanilgan (Putra Malayziya universitetining 2022-yil 31-oktabrdagi ma’lumotnomasi, Malayziya). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi, qaralgan differensial o‘yinda kafolatlangan quvish va kafolatlangan qochish vaqtlarini aniqlashga imkon bergan.

l_2 Gilbert fazosida o‘yinchilarning boshqaruvlari integral cheklovli differensial o‘yinda optimal tutish vaqtini aniqlash bo‘yicha topilgan yangi yetarli shartlar OT-F-4-(36+32) raqamli “Matematik fizika va optimal boshqaruv masalalarini yechishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish. Toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich va spektral masalalar va ularning tatbiqlari” mavzusidagi ilmiy loyihada, optimal boshqaruv masalalarini tadqiq etishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 17-oktabrdagi №04/11-9008-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi, optimal boshqaruv funksiyasini qurishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalari V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutidagi “Dinamik va boshqariluvchi sistemalar” nomli ilmiy seminarida, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi SMat-01 “Differensial operatorlar spektral nazariyasining nochiziqli evolutsion tenglamalarga tatbiqlari va zamonaviy matematik fizikaning nokorrekt masalalari” nomli differensial tenglamalar kafedrasi ilmiy seminarida, V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutidagi “Differensial tenglamalar va ularning qo‘llanmalari” nomli ilmiy seminarida va bir qancha ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarida taqdim etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarda taqdim etilgan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 2 ta ilmiy maqola “Scopus” va “Web of Science Core Collection” ma’lumotlar bazasida indekslangan ilmiy jurnallarda va 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 84 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob "**Boshqaruvlariga geometrik va integral chegara bo'lganda ko'p karrali tutish"** deb nomlanadi va *d*-karrali tutishni amalga oshirish uchun yetarli shartlar qo'yiladi va quvlovchi uchun strategiya quriladi.

O'yinchilari m ta quvlovchilar $x_1, x_2, ..., x_m$ va bitta qochuvchi y orqali ifodalanuvchi tenglamalar sistemasini qaraymiz

$$\begin{aligned} &\dot{x}_i = u_i,\ x_i(0) = x_i^0,\ i = 1, 2, ..., m, \\ &\dot{y} = v,\ y(0) = y^0, \end{aligned} \tag{1}$$

bu yerda, $x_i, x_i^0, y, y^0, u_i, v \in \mathbb{R}^n$, $x_i^0 \neq y^0$, $u_i = \left(u_{i1}, ..., u_{in}\right)$ va $v = \left(v_1, ..., v_n\right)$lar mos ravishda x_i quvlovchilar va y qochuvchining boshqaruv parametrlari.

Quvlovchilar va qochuvchining joiz boshqaruvlari quyidagi shartlarni qanoatlantiradigan $u_i(t)$ va $v(t)$ funksiyalar sifatida aniqlanadi:

$$\begin{aligned} &\sum_{j=1}^{k} u_{ij}^2(t) \le \rho_{i1}^2, && t \ge 0, \quad i = 1, 2, ..., m, \\ &\int_0^\infty \sum_{j=k+1}^{n} u_{ij}^2(t)dt \le \rho_{i2}^2, && t \ge 0, \quad i = 1, 2, ..., m, \\ &\sum_{j=1}^{k} v_j^2(t) \le \sigma_1^2, && t \ge 0, \\ &\int_0^\infty \sum_{j=k+1}^{n} v_j^2(t)dt \le \sigma_2^2, && t \ge 0, \end{aligned} \tag{2}$$

bunda $\rho_{i1}, \rho_{i2}, i = 1, 2, ..., m; \sigma_1, \sigma_2$ berilgan musbat sonlar, $k, k < n$, berilgan butun musbat son.

1-ta'rif. Biz $U_i\left(t, x_i, y, v\right)$ funksiyani x_i quvlovchining strategiyasi deymiz, agar qochuvchining ixtiyoriy $v(t), t \ge 0$ joiz boshqaruvida (1) masala yagona $(x_i(t), y(t))$ yechimga ega bo'lsa, va bu yechim bo'ylab quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

$$\sum_{j=1}^{k} U_{ij}^2\left(t, x_i(t), y(t), v(t)\right) \le \rho_{i1}^2,$$

$$\int_0^\infty \sum_{j=k+1}^{n} U_{ij}^2\left(t, x_i(t), y(t), v(t)\right) \le \rho_{i2}^2,\ t \ge 0,\ i = 1, ..., m.$$

$1 \le d \le m$ bo'lsin.

2-ta'rif. Biz (1)-(2) o'yinda d-karrali tutish mumkin deymiz, agar quvlovchining shunday strategiyasi topilib, qochuvchining ixtiyoriy joiz boshqaruvida, biror o'zaro farqli $i_1, i_2, ..., i_d \in \{1, 2, ..., m\}$ sonlar va $0 < \tau_1 < \tau_2 < ... < \tau_d$ vaqtlarda

$$x_{i_1}(\tau_1) = y(\tau_1), \quad x_{i_2}(\tau_2) = y(\tau_2), \ ..., \quad x_{i_d}(\tau_d) = y(\tau_d)$$

tengliklar o'rinli bo'lsa.

1-teorema.

$$Q = \{i \mid \rho_{i1} > \sigma_1, i \in \{1, 2, ..., m\}\}$$

to'plamning kesishmaydigan $Q_1, Q_2, ..., Q_d$ qism to'plamlari mavjud bo'lib, har bir $j = 1, 2, ..., d$ uchun

$$\sum_{i \in Q_j} \rho_{i2}^2 > \sigma_2^2$$

tengsizlik o'rinli bo'lsin. U holda, har qanday $(y_0, x_{10}, ..., x_{m0})$ boshlang'ich holat uchun, (1)-(2) o'yinda d-karrali tutish mumkin.

Ikkinchi paragrafda $v_1(t), ..., v_n(t), \ u_{i1}(t), ..., u_{in}(t)$ boshqaruvlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned}
&\|u_{iK}(\cdot)\|^2 = \int_0^\infty \sum_{j \in K} |u_{ij}(t)|^2 \, dt \le \rho_{iK}^2, \quad i = 1, ..., m, \ K \subset \{1, ..., n\} = N, \\
&\|u_{ij}(\cdot)\|^2 = \int_0^\infty |u_{ij}(t)|^2 \, dt \le \rho_{ij}^2, \qquad i = 1, ..., m, \ \ j \in N \setminus K, \\
&\|v_K(\cdot)\|^2 = \int_0^\infty \sum_{j \in K} |v_j(t)|^2 \, dt \le \sigma_K^2, \quad K \subset \{1, ..., n\} = N, \\
&\|v_j(\cdot)\|^2 = \int_0^\infty |v_j(t)|^2 \, dt \le \sigma_j^2, \qquad j \in N \setminus K,
\end{aligned} \tag{3}$$

ya'ni, K to'plamni tashkil etuvchi barcha o'yinchilarning koordinatalari uchun umumiy integral chegara, qolganlari uchun esa koordinatali integral chegara qo'yiladi.

3-ta'rif. Biz (1), (3) o'yinda d-karrali tutish mumkin deymiz, agar quvlochining shunday $U_i(t, x_i, y, v)$ strategiyasi topilib, qochuvchining ixtiyoriy $v(t), t \ge 0$ joiz boshqaruvi uchun, $x_{i_s}(\tau_s) = y(\tau_s)$ tengliklar biror o'zaro farqli $i_1, i_2, ..., i_d \in \{1, 2, ..., m\}$ sonlar va $\tau_s > 0, s = 1, 2, ..., d$ vaqtlarda bajarilsa.

2-teorema. Agar quyidagi

$$\sigma_K < \rho_{iK}, \ \sigma_j < \rho_{ij},$$
$$i = 1, ..., d, \quad j \in N \setminus K,$$

tengsizliklar o'rinli bo'lsa, (1), (3) o'yinda d-karrali tutish mumkin.

3-teorema. Agar

$$\rho_{iK} > \sigma_K, \quad \rho_{ij} > \sigma_j,$$

$$\rho_{1s}^2 + \rho_{2s}^2 + \ldots + \rho_{ds}^2 > \sigma_s^2,$$

$$i = 1, 2, \ldots, d, \ j \in N \setminus K \setminus \{s\},$$

bo'lsa, quvlash (1) o'yinda yakunlanadi. Bunda K to'plam N to'plamning qism to'plami va $s \in N \setminus K$.

Ikkinchi bob **"Boshqaruvlariga geometrik chegara bo'lganda kafolatlangan tutish va kafolatlangan qochish vaqti"** deb nomlanadi va cheksiz differensial tenglamalar sistemaning yechimi yagona va mavjudligi isbotlangan, hamda kafolatlangan tutish va qochish vaqtlarini hisoblash uchun formulalar aniqlangan.

Bu bobda, biz l_2 Gilbert fazosida quyidagi ko'rinishda ifodalanuvchi differensial tenglamalar sistemasini qaraymiz:

$$\begin{cases} \dot{x}_i = -\alpha_i x_i - \beta_i y_i + w_{i1}, & x_i(0) = x_{i0}, \\ \dot{y}_i = \beta_i x_i - \alpha_i y_i + w_{i2}, & y_i(0) = y_{i0}, \end{cases} \quad i = 1, 2, \ldots \tag{4}$$

bunda α_i, β_i lar haqiqiy sonlar, $x_0 = (x_{10}, x_{20}, \ldots)$, $y_0 = (y_{10}, y_{20}, \ldots) \in l_2$. Faraz qilaylik, α_i chegaralangan manfiy son: $a \le \alpha_i \le 0$, bunda a berilgan son.

$w(t)$ funksiyalarni qaraymiz. Uning $w_i(t) = \left(w_{i1}(t), w_{i2}(t)\right)$, $0 \le t \le T$, $i = 1, 2, \ldots$ o'lchovli funksiyalari ushbu

$$\sum_{i=1}^{\infty} \int_0^T \left(w_{i1}^2(s) + w_{i2}^2(s)\right) ds \le \rho_0^2$$

tengsizlikni qanoatlantiradi. Biz bu funksiyalar sinfini $S(\rho_0)$ bilan belgilaymiz, bunda ρ_0 berilgan musbat son, T yetarlicha katta son deb faraz qilamiz.

Ma'lumki,

$$z(t) = \left(z_1(t), z_2(t), \ldots\right) = \left(x_1(t), y_1(t), x_2(t), y_2(t), \ldots\right),$$

$$z_i(t) = \left(x_i(t), y_i(t)\right), \quad |z_i| = \sqrt{x_i^2 + y_i^2},$$

$$z_0 = (z_{10}, z_{20}, \ldots) = (x_{10}, y_{10}, x_{20}, y_{20}, \ldots).$$

4-ta'rif. $w(\cdot) \in S(\rho_0)$ bo'lsin. $z_i(t)$ uzluksiz koordinatalari ushbu $z_i(t_0) = z_{i0}$, $i = 1, 2, \ldots,$ boshlangich shartni qanoatlantiruvchi $z(t) = (z_1(t), z_2(t), \ldots)$, $0 \le t \le T$, funksiyaga (4) sistemaning yechimi deyiladi, agar u $[t_0, T]$ ning deyarli hamma joyida differensiallansa va $[t_0, T]$ ning deyarli hamma joyida (4) sistemani qanoatlantirsa.

4-teorema. Agar $w(\cdot) \in S(\rho_0)$ va $a \le \alpha_i \le 0$ bo'lsa, har qanday berilgan $T > 0$ uchun $C(0, T; l_2)$ fazoda (4) cheksiz differensial tenglamalar sistemasining yechimi mavjud va u yagona.

Bu bobning ikkinchi paragrafida, l_2 Gilbert fazosida quyidagi differensial o‘yinni o‘rganamiz

$$\begin{aligned} \dot{x}_i &= -\alpha_i x_i - \beta_i y_i + u_{i1} - v_{i1}, \quad x_i(0) = x_{i0}, \\ \dot{y}_i &= \beta_i x_i - \alpha_i y_i + u_{i2} - v_{i2}, \quad y_i(0) = y_{i0}, \end{aligned} \quad i = 1, 2, \ldots \tag{5}$$

bunda α_i, β_i haqiqiy sonlar, $\alpha_i \geq 0$, $(x_{10}, x_{20}, \ldots)$, $(y_{10}, y_{20}, \ldots) \in l_2$, $u = (u_1, u_2, ...)$ quvlovchining boshqaruv parametri va $v = (v_1, v_2, ...)$ qochuvchining boshqaruv parametri, $u_i = (u_{i1}, u_{i2})$ va $v_i = (v_{i1}, v_{i2})$, $i = 1, 2, ...$, ikki olchovli vektordan iborat. Faraz qilamiz, $0 \leq t \leq T$, bunda T yetarlicha katta son va $z_0 = (x_{10}, y_{10}, x_{20}, y_{20}, \ldots) \neq 0$.

5-ta’rif. $u(t) = (u_1(t), u_2(t), \ldots)$, $t \in [0, T]$ funksiyaga quvlovchining joiz boshqaruvi deymiz, agar uning $u_i(t)$ koordinatalari o‘lchovli funksiya bo‘lib, quyidagi shartni qanoatlantirsa

$$\sum_{i=1}^{\infty} \left(u_{i1}^2(t) + u_{i2}^2(t) \right) \leq \rho^2, \quad 0 \leq t \leq T.$$

6-ta’rif. $v(t) = (v_1(t), v_2(t), \ldots)$, $t \in [0, T]$ funksiyaga qochuvchining joiz boshqaruvi deymiz, agar uning $v_i(t)$ koordinatalari o‘lchovli funksiya bo‘lib, quyidagi shartni qanoatlantirsa

$$\sum_{i=1}^{\infty} \left(v_{i1}^2(t) + v_{i2}^2(t) \right) \leq \sigma^2, \quad 0 \leq t \leq T.$$

Bunda $\rho > \sigma$ deb faraz qilinadi.

7-ta’rif. Quyidagi ko‘rinishdagi funksiyaga quvlovchining strategiyasi deymiz

$$U(t, v) = U^0(t) + v = (U_1^0(t) + v_1, U_2^0(t) + v_2, \ldots),$$
$$U_i^0(t) = \left(U_{i1}^0(t), U_{i2}^0(t) \right),$$

agar $U^0(t) = (U_1^0(t), U_2^0(t), \ldots)$ ning $U_i^0(t)$, $0 \leq t \leq T$, koordinatalari o‘lchovli bo‘lib, ushbu tengsizlikni qanoatlantirsa

$$\sum_{i=1}^{\infty} \left(\left(U_{i1}^0(t) \right)^2 + \left(U_{i2}^0(t) \right)^2 \right) \leq (\rho - \sigma)^2, \quad 0 \leq t \leq T.$$

8-ta’rif. Biz θ sonini (5) o‘yinda kafolatlangan tutish vaqti deymiz, agar quvlovchining biror U strategiyasi va qochuvchining har qanday joiz boshqaruvi uchun, biror t', $0 \leq t' \leq \theta$ da $z(t') = 0$ bo‘lsa, bunda $z(t) = (z_1(t), z_2(t), \ldots)$ boshlang‘ich (5) masalaning yechimi.

9-ta’rif. τ sonini kafolatlangan qochish vaqti deymiz, agar ixtiyoriy τ', $0 \leq \tau' < \tau$ son uchun qochuvchining $v_0(t)$ joiz boshqaruvini qurish mumkin bo‘lib, quvlovchining har qanday joiz boshqaruvi uchun barcha $0 \leq t \leq \tau'$ larda $z(t) \neq 0$ bo‘lsa.

1-masala. (5) o‘yinda θ kafolatlangan tutish vaqti va τ kafolatlangan qochish vaqtini topish.

5-teorema. Ushbu

$$\sum_{\alpha_i>0}\frac{\alpha_i^2\left|z_{i0}\right|^2}{\sinh^2(\alpha_i\theta)}+\frac{1}{\theta^2}\sum_{\alpha_i=0}\left|z_{i0}\right|^2=\left(\rho-\sigma\right)^2$$

tenglamani qanoatlantiradigan θ soni (5) o‘yinda kafolatlangan tutish vaqti bo‘ladi.

6-teorema. Har qanday $z_0=(z_{10},z_{20},\cdots)\neq 0$ boshlang‘ich holat uchun,

$$\tau=\sup_i\tau_i,\quad \tau_i=\begin{cases}\dfrac{1}{\alpha_i}\ln\left(\dfrac{\alpha_i\left|z_{i0}\right|}{\rho-\sigma}+1\right), & \alpha_i>0,\\ \dfrac{\left|z_{i0}\right|}{\rho-\sigma}, & \alpha_i=0\end{cases}$$

soni (5) o‘yinda kafolatlangan qochish vaqti bo‘ladi.

To‘rtinchi paragrafda, quvish masalasi uchun kafolatlangan tutish vaqtini topamiz.

l_2 Gilbert fazosida ushbu sistemani qaraymiz

$$\begin{aligned}\dot{x}_i&=\alpha_i x_i-\beta_i y_i+u_{i1}-v_{i1}, \quad x_i(0)=x_{i0},\\ \dot{y}_i&=\beta_i x_i+\alpha_i y_i+u_{i2}-v_{i2}, \quad y_i(0)=y_{i0},\end{aligned}\qquad i=1,\,2,\,... \tag{6}$$

bunda α_i, β_i haqiqiy sonlar va $0\le\alpha_i\le a$.

2-masala. (6) masala uchun θ kafolatlangan tutish vaqtni topish.

7-teorema. Quyidagi

$$\sum_{\alpha_i>0}\frac{\alpha_i^2e^{2\alpha_i t}}{\sinh^2(\alpha_i t)}|z_{i0}|^2+\frac{1}{t^2}\sum_{\alpha_i=0}|z_{i0}|^2=(\rho-\sigma)^2$$

tenglama $t=\theta$ yechimga ega bo‘lsin. Bu θ son (6) o‘yinda kafolatlangan tutish vaqti bo‘ladi.

Uchinchi bob **“Boshqaruvlariga integral chegara bo‘lganda optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar masalalari”** deb nomlanadi va cheksiz ikki blok differensial tenglamalar sistemasi bilan ifodalanadigan bitta quvlovchi va bitta qochuvchidan iborat quvish-qochish differensial o‘yin o‘rganilgan:

$$\begin{aligned}\dot{x}_i&=\alpha_i x_i-\beta_i y_i+u_{i1}-v_{i1}, \qquad x_i(0)=x_{i0},\\ \dot{y}_i&=\beta_i x_i+\alpha_i y_i+u_{i2}-v_{i2}, \qquad y_i(0)=y_{i0},\end{aligned} \tag{7}$$

bunda $\alpha_i\ge 0$.

10-ta’rif. Ushbu ko‘rinishdagi

$$U(t,v)=(U_1(t,v),U_2(t,v),\ldots)$$

$$U_i(t,\,v)=(U_{i1}(t,\,v),U_{i2}(t,\,v)),\;\; U:[0,T]\times l_2\to l_2,$$

funksiyani quvlovchining strategiyasi deymiz, agar $U_i(t,\,v)=v_i+w_i(t)$ komponentalari $v_i(t)=(v_{i1}(t),\,v_{i2}(t))$ va $w_i(t)=(w_{i1}(t),\,w_{i2}(t))$ bo‘lgan, hamda qochuvchining har qanday $v(\cdot)\in S(\sigma)$ joiz boshqaruvi uchun quyidagi shartni qanoatlantirsa

$$\sum_{i=1}^{\infty}\int_0^T |U_i(t,v(t))|^2\,dt \le \rho^2,$$

$$|U_k(t,\,v(t))|^2 = U_{k1}^2(t,\,v(t)) + U_{k2}^2(t,\,v(t)),$$

bunda $w(\cdot) = (w_1(\cdot),\, w_2(\cdot),\, \ldots) \in S(\rho - \sigma)$.

11-ta'rif. Quvlovchining $U = U(t,\,v)$ strategiyasi $\theta(U)$ vaqt ichida quvlashni yakunlashni kafolatlaydi deymiz, agar biror $t' \in [0,\,\theta(U)]$ da $z(t') = 0$ bo'lsa. Shuningdek, $\theta(U)$ soni kafolatlangan tutish vaqti deyiladi.

Shubhasiz, har qanday $\theta',\, \theta' \ge \theta(U)$ sonini, U strategiyaga mos keladigan tutish vaqti sifatida ko'rish mumkin. $\theta(U)$ sonlarning eng katta quyi chegarasini $\hat{\theta}(U)$ bilan belgilaymiz. Agar $\hat{\theta}(U^0) = \inf\limits_U \hat{\theta}(U)$ bo'lsa, U^0 strategiya quvlovchining optimal strategiyasi deyiladi.

Ushbu

$$\mu(t) = \left(\rho^2 - \int_0^t \|u(s)\|^2\,ds\right)^{1/2},\quad \nu(t) = \left(\sigma^2 - \int_0^t \|v(s)\|^2\,ds\right)^{1/2}$$

belgilashlarni olamiz. Bunda $\mu^2(t)$ va $\nu^2(t)$ quvlovchi va qochuvchining t vaqtdagi qoldiq resurslari.

12-ta'rif. Ushbu ko'rinishdagi

$$(t,\,z,\,\mu,\,\nu,\,u(t-\varepsilon)) \to V(t,\,z,\,\mu,\,\nu,\,u(t-\varepsilon)),$$
$$V : [0,\,T] \times l_2 \times [0,\,\rho] \times [0,\,\sigma] \times l_2 \to l_2,$$

funksiyani qochuvchining strategiyasi deymiz, agar quyidagi shartlarni qanoatlantirsa

(i) $V = V_0(t)$ qachonki $\mu > \nu$, bu yerda $V_0(t)$ qochuvchining joiz boshqaruvi,

(ii) $v = 0$ qachonki $\mu \le \nu$ va $(t,\,z) \in G_1$, bu yerda $G_1 \subset [0,\,T] \times l_2$,

(iii) $v = V(t,\,z,\,\mu,\,\nu,\,u(t-\varepsilon))$ qachonki $\mu \le \nu$ va $(t,\,z) \in G_2$, bu yerda ε musbat son, $u(\cdot)$ quvlovchining joiz boshqaruvi, $G_2 \subset [0,\,T] \times l_2$,

(iv) $V(\cdot,\,z,\,\mu,\,\nu,\,\cdot)$ o'lchovli funksiya.

13-ta'rif. Qochuvchining V strategiyasi $[0,\,\theta(V))$ oraliqda qochishni kafolatlaydi deymiz, agar quvlovchining har qanday $u(t),\, t \in [0,\,T]$ joiz boshqaruvi uchun $z(t) \ne 0,\quad t \in [0,\,\theta(V))$ bo'lsa. Bunda $\theta(V)$ sonini kafolatlangan qochish vaqti deymiz.

$\theta(V)$ sonlarning eng kichik yuqori chegarasini $\breve{\theta}(V)$ bilan belgilaymiz. Agar $\breve{\theta}(V^0) = \sup\limits_V \breve{\theta}(V)$ bo'lsa, V^0 strategiyani qochuvchining optimal strategiyasi deymiz.

Agar $\hat{\theta}(U^0) = \breve{\theta}(V^0)$ bo'lsa, bu son o'yinning optimal tutish vaqti deyiladi.

3-masala. (6) sistema holatini berilgan $z(0) = z_0$ boshlang'ich holatdan koordinata boshiga o'tkazuvchi optimal vaqtni topish.

Bu masalani yechish uchun quyidagi belgilash olamiz

$$\phi_i(t)=\int_0^t e^{-2\alpha_i t}dt=\begin{cases}\dfrac{1-e^{-2\alpha_i t}}{2\alpha_i}, & \alpha_i\neq 0,\\ t, & \alpha_i=0.\end{cases}$$

Ko‘rish mumkin, $t\to 0^+$ har bir $i=1,2,...$ da $\dfrac{1}{\phi_i(t)}\to+\infty$. $z_0\neq 0$, shuning uchun ushbu tenglamaning chap tomondagi yig‘indining hech bo‘lmaganda bitta hadi nolga teng bo‘lmagan z_{i0} ga mos keladi

$$\sum_{i=1}^{\infty}\frac{|z_{i0}|^2}{\phi_i(t)}=\rho_0^2, \tag{8}$$

$t\to 0^+$ bo‘lganda $+\infty$ ga yaqinlashadi. Bundan tashqari, (8) ning chap qismi $t, t>0$ ning kamayuvchi funksiyasi, chunki $\phi_i(t)$ funksiya o‘suvchi.

Agar

$$\sum_{i=1}^{\infty}2\alpha_i|z_{i0}|^2<\rho_0^2, \tag{9}$$

bo‘lsa, (8) tenglama yagona $t=\theta$ ildizga ega.

8-teorema. Agar $z_0\neq 0$ (9) tengsizlikni qanoatlantirsa, (8) tenglamaning yagona ildizi bo‘lgan θ son, vaqt-optimal boshqaruv masalasi uchun optimal o‘tkazish vaqti bo‘ladi.

Quyidagi tenglamaning chap tomonidagi yig‘indining hech bo‘lmaganda bitta hadi 0 ga teng emas.

$$\sum_{i=1}^{\infty}\frac{|z_{i0}|^2}{\phi_i(t)}=(\rho-\sigma)^2, \tag{10}$$

chunki $z_0\neq 0$.

Agar $\sum_{i=1}^{\infty}2\alpha_i|z_{i0}|^2<(\rho-\sigma)^2$ bo‘lsa, (10) tenglama yagona $t=\theta_1$ yechimga ega.

9-teorema. θ_1 soni (7) o‘yin uchun optimal tutish vaqti bo‘ladi.

XULOSA

Dissertatsiyada, $\mathbb{R}^n$ fazoda ko‘p karrali tutish differensial o‘yinlari, hamda l_2 Gilbert fazosida ikki blok differensial tenglamalar sistemasi uchun quvish va qochish masalalari ustida tadqiqotlar bajarildi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Bir nechta quvlovchi va bitta qochuvchili differensial o‘yin uchun ko‘p karrali tutish aniqlangan. Bunda o‘yinchilarning boshqaruv parametrlarining ba’zilariga geometrik, qolganlariga esa integral chegara qo‘yilgan.

2. Cheksiz 2-blok differensial tenglamalar sistemasi uchun yechimning yagona va mavjudligi isbotlangan.

3. Cheksiz 2-blok differensial tenglamalar sistemasi uchun quvish va qochish differensial o‘yinlari uchun kafolatlangan tutish vaqti, hamda kafolatlangan qochish vaqti aniqlangan.

4. Quvlovchi uchun aniq strategiya yaratilgan, bu o‘yinni kafolatlangan tutish vaqtida tugallanishini ta’minlaydi.

5. Vaqt-optimal masalasi uchun optimal o‘tkazish vaqti uchun tenglama topilgan. Hamda, ushbu masala uchun optimal boshqaruv qurilgan.

6. Differensial o‘yin uchun optimal tutish vaqti aniqlangan va o‘yinchilar uchun optimal strategiyalar qurilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

KUCHKAROVA SARVINOZ ATAMURATOVNA

DIFFERENTIAL GAMES DESCRIBED BY INFINITE SYSTEMS OF TWO BLOCK DIFFERENTIAL EQUATIONS

01.01.02 – Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION
OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT – 2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2022.2.PhD/FM707.

Dissertation has been prepared at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://ik-fizmat.nuu.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal (http://www.ziyonet.uz).

Scientific supervisors:	**Ibragimov Gafurjan Ismailovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Mamadaliev Numanjon** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Ibaydullayev Tulanboy Tursunbaevich Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor
Leading organization:	**Namangan State University**

Defense will take place " 8 " 04 2025 at 14:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Address: University str. 4, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Tel: (+99871) 246-53-21, Fax ; (+99871) 246 53 21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (is registered № 37) (Address: University str. 4, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 246-02--24).

Abstract of dissertation sent out on " 24 " march 2025 year

(Mailing report № 2 on " 24 " march 2025 year)

A.Sadullaev
Chairman of Scientific Council on award of scientific degrees, D.F.-M.S., Academician

R.M.Juraev
Scientific secretary of Scientific Council on award of scientific degrees, PhD

Sh.A.Alimov
Chairman of Scientific seminar under Scientific Council on award of scientific degrees, D.F.-M.S., Academician

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

Actuality and demand of the theme of dissertation. The theory of differential games is a branch of mathematical control theory that studies control problems in conflict situations when the movements of objects are described by differential equations. The formulation of problems that make up the content of the theory of differential games presupposes the presence of opposing sides-players, each of which can influence the change in the state of the controlled system. Some functional is given on the motions of this system. The task of each player is to determine such a method of forming control actions that, for any admissible behavior of the opponent, the player guarantees the smallest (or largest) possible value of the given functional. In the theory of differential games, optimal control problems are also considered, complicated by various conditions for control, lack of information, and other reasons. The relevance of these problems the theory of differential games, start to develop rapidly since the middle of the 20th century. The solution of many practical and theoretical problems arising as a result of numerous scientific and practical research conducted worldwide is often reduced to the study of conflicting controlled processes described differential equations. Therefore, the study of conflicting situations described by an infinite system of two-block differential equations in cases where geometric, integral and various constraints are imposed on the control parameters is one of the actual problems of today.

In scientific research conducted in the world, solving conflicting problems described by an infinite system of block differential equations is of great importance. A number of research works are being carried out in the following priority areas on the theory of differential games described by an infinite system of two-block differential equations and its applications: pursuit-evader problems described by infinite system of two-block differential equations with various constraints on the players' controls, application of methods for solving pursuit problems in partial differential equations with various constraints on the control parameters, which adequately reflect the physical processes arising from conflict situations that are often encountered in practice; solving group pursuit-evader problems in a differential game described by an infinite system of two-block differential equations; development of methods for numerically solving differential game problems described by differential equations, etc.

In our country, has paid increased attention is regularly to the current scientific directions of fundamental sciences with practical application. Bringing fundamental research closer to practice has been identified as one of the main tasks in the development of science. Differential game theory is one of the most effective areas for solving problems of process control in conflict situations. As a result of the development of this direction, significant results have been achieved in solving problems in conflict situations characterized by differential equations arising from problems in mathe-matical physics, mechanics, mathematical biology, and economics. In particular, essential tasks[2] in the priority directions such as "the theory of differential equations, algebra and its applications, functional analysis and its applications, the theory of dynamical systems, mathematical statistics, mathematical modeling" have been defined. In the implementation of these tasks, it is momentous to build control models, which provide optimal solutions for differential game problems with various restrictions, in the progress of dynamical systems, differential equations, the theories of mathematical control and dynamical game.

